

SCIENCE
PROBLEMS.UZ

ISSN 2181-1342

Actual problems of social and humanitarian sciences
Актуальные проблемы социальных и гуманитарных наук

Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari

3-son (5-jild)
2025

SCIENCEPROBLEMS.UZ

IJTIMOIIY-GUMANITAR FANLARNING DOLZARB MUAMMOLARI

№ 3 (5) – 2025

АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО- ГУМАНИТАРНЫХ НАУК

ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

TOSHKENT-2025

BOSH MUHARRIR:

Isanova Feruza Tulqinovna

TAHRIR HAY'ATI:

07.00.00- TARIX FANLARI:

Yuldashev Anvar Ergashevich – tarix fanlari doktori, siyosiy fanlar nomzodi, professor, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat boshqaruvi akademiyasi;

Mavlanov Uktam Maxmasabirovich – tarix fanlari doktori, professor, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat boshqaruvi akademiyasi;

Xazratkulov Abror – tarix fanlari doktori, dotsent, O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti.

Tursunov Ravshan Normuratovich – tarix fanlari doktori, O'zbekiston Milliy Universiteti;

Xolikulov Axmadjon Boymahmatovich – tarix fanlari doktori, O'zbekiston Milliy Universiteti;

Gabrielyan Sofya Ivanovna – tarix fanlari doktori, dotsent, O'zbekiston Milliy Universiteti.

Saidov Sarvar Atabullo o'g'li – katta ilmiy xodim, Imom Termiziy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazi, ilmiy tadqiqotlar bo'limi.

08.00.00- IQTISODIYOT FANLARI:

Karlibayeva Raya Xojabayevna – iqtisodiyot fanlari doktori, professor, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti;

Nasirxodjayeva Dilafruz Sabitxanovna – iqtisodiyot fanlari doktori, professor, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti;

Ostonokulov Azamat Abdukarimovich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor, Toshkent moliya instituti;

Arabov Nurali Uralovich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor, Samarqand davlat universiteti;

Xudoyqulov Sadirdin Karimovich – iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti;

Azizov Sherzod O'ktamovich – iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent, O'zbekiston Respublikasi Bojxona instituti;

Xojayev Azizxon Saidaloxonovich – iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent, Farg'ona politexnika instituti

Xolov Aktam Xatamovich – iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat boshqaruvi akademiyasi;

Shadiyeva Dildora Xamidovna – iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent v.b, Toshkent moliya instituti;

Shakarov Qulmat Ashirovich – iqtisodiyot fanlari

nomzodi, dotsent, Toshkent axborot texnologiyalari universiteti

09.00.00- FALSAFA FANLARI:

Hakimov Nazar Hakimovich – falsafa fanlari doktori, professor, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti;

Yaxshilikov Jo'raboy – falsafa fanlari doktori, professor, Samarqand davlat universiteti;

G'aybullayev Otabek Muhammadiyevich – falsafa fanlari doktori, professor, Samarqand davlat chet tillar instituti;

Saidova Kamola Uskanbayevna – falsafa fanlari doktori, "Tashkent International University of Education" xalqaro universiteti;

Hoshimxonov Mo'min – falsafa fanlari doktori, dotsent, Jizzax pedagogika instituti;

O'roqova Oysuluv Jamoliddinovna – falsafa fanlari doktori, dotsent, Andijon davlat tibbiyot instituti, Ijtimoiy-gumanitar fanlar kafedrasini mudiri;

Nosirxodjayeva Gulnora Abdukaxxarovna – falsafa fanlari nomzodi, dotsent, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Turdiyev Bexruz Sobirovich – falsafa fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent, Buxoro davlat universiteti.

10.00.00- FILOLOGIYA FANLARI:

Axmedov Oybek Saporbayevich – filologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti;

Ko'chimov Shuxrat Norqizilovich – filologiya fanlari doktori, dotsent, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Hasanov Shavkat Ahadovich – filologiya fanlari doktori, professor, Samarqand davlat universiteti;

Baxronova Dilrabo Keldiyorovna – filologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti;

Mirsanov G'aybullo Qulmurodovich – filologiya fanlari doktori, professor, Samarqand davlat chet tillar instituti;

Salaxutdinova Musharraf Isamutdinovna – filologiya fanlari nomzodi, dotsent, Samarqand davlat universiteti;

Kuchkarov Raxman Urmanovich – filologiya fanlari nomzodi, dotsent v/b, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Yunusov Mansur Abdullayevich – filologiya fanlari nomzodi, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat boshqaruvi akademiyasi;

Saidov Ulugbek Aripovich – filologiya fanlari nomzodi, dotsent, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat boshqaruvi akademiyasi.

12.00.00- YURIDIK FANLAR:

Axmedshayeva Mavlyuda Axatovna – yuridik fanlar doktori, professor, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Muxitdinova Firyuza Abdurashidovna – yuridik fanlar doktori, professor, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Esanova Zamira Normurotovna – yuridik fanlar doktori, professor, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan yurist, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Hamroqulov Bahodir Mamasharifovich – yuridik fanlar doktori, professor v.b., Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universiteti;

Zulfiqorov Sherzod Xurramovich – yuridik fanlar doktori, professor, O'zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti;

Xayitov Xushvaqt Saparbayevich – yuridik fanlar doktori, professor, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat boshqaruvi akademiyasi;

Asadov Shavkat G'aybullayevich – yuridik fanlar doktori, dotsent, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat boshqaruvi akademiyasi;

Ergashev Ikrom Abdurasulovich – yuridik fanlari doktori, professor, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Utemuratov Maxmut Ajimuratovich – yuridik fanlar nomzodi, professor, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Saydullayev Shaxzod Alixanovich – yuridik fanlar nomzodi, professor, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Hakimov Komil Baxtiyarovich – yuridik fanlar doktori, dotsent, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Yusupov Sardorbek Baxodirovich – yuridik fanlar doktori, dotsent, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Amirov Zafar Aktamovich – yuridik fanlar doktori (PhD), O'zbekiston Respublikasi Sudyalari oliy kengashi huzuridagi Sudyalari oliy maktabi;

Jo'rayev Sherzod Yuldashevich – yuridik fanlar nomzodi, dotsent, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Babadjanov Atabek Davronbekovich – yuridik fanlar nomzodi, dotsent, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Normatov Bekzod Akrom o'g'li — yuridik fanlar bo'yicha falsafa doktori, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Rahmatov Elyor Jumaboyevich — yuridik fanlar nomzodi, Toshkent davlat yuridik universiteti;

13.00.00- PEDAGOGIKA FANLARI:

Xashimova Dildarxon Urinboyevna – pedagogika fanlari doktori, professor, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Ibragimova Gulnora Xavazmatovna – pedagogika fanlari doktori, professor, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti;

Zakirova Feruza Maxmudovna – pedagogika fanlari doktori, Toshkent axborot texnologiyalari universiteti huzuridagi pedagogik kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish tarmoq markazi;

Kayumova Nasiba Ashurovna – pedagogika fanlari doktori, professor, Qarshi davlat universiteti;

Taylanova Shoxida Zayniyevna – pedagogika fanlari doktori, dotsent;

Jumaniyozova Muhayyo Tojiyevna – pedagogika fanlari doktori, dotsent, O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti;

Ibraximov Sanjar Urinbayevich – pedagogika fanlari doktori, Iqtisodiyot va pedagogika universiteti;

Javliyeva Shaxnoza Baxodirovna – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), Samarqand davlat universiteti;

Bobomurotova Latofat Elmurodovna — pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), Samarqand davlat universiteti.

19.00.00- PSIXOLOGIYA FANLARI:

Karimova Vasila Mamanosirovna – psixologiya fanlari doktori, professor, Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti;

Hayitov Oybek Eshboyevich – Jismoniy tarbiya va sport bo'yicha mutaxassislarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish instituti, psixologiya fanlari doktori, professor

Umarova Navbahor Shokirovna– psixologiya fanlari doktori, dotsent, Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti, Amaliy psixologiyasi kafedrasi mudiri;

Atabayeva Nargis Batirovna – psixologiya fanlari doktori, dotsent, Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti;

Shamshetova Anjim Karamaddinovna – psixologiya fanlari doktori, dotsent, O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti;

Qodirov Obid Safarovich – psixologiya fanlari doktori (PhD), Samarkand viloyat IIB Tibbiyot bo'limi psixologik xizmat boshlig'i.

22.00.00- SOTSILOGIYA FANLARI:

Latipova Nodira Muxtarjanovna – sotsiologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston milliy universiteti kafedra mudiri;

Seitov Azamat Po'latovich – sotsiologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston milliy universiteti;

Sodiqova Shohida Marxaboyevna – sotsiologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston xalqaro islom akademiyasi.

23.00.00- SIYOSIY FANLAR

Nazarov Nasriddin Ataqulovich –siyosiy fanlar doktori, falsafa fanlari doktori, professor, Toshkent arxitektura qurilish instituti;

Bo'tayev Usmonjon Xayrullayevich –siyosiy fanlar doktori, dotsent, O'zbekiston milliy universiteti kafedra mudiri.

OAK Ro'yxati

Mazkur jurnal Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi Rayosatining 2022-yil 30-noyabrdagi 327/5-son qarori bilan tarix, iqtisodiyot, falsafa, filologiya, yuridik va pedagogika fanlari bo'yicha ilmiy darajalar yuzasidan dissertatsiyalar asosiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan.

“Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari” elektron jurnali 2020-yil 6-avgust kuni 1368-sonli guvohnoma bilan davlat ro'yxatiga olingan.

Muassis: “SCIENCEPROBLEMS TEAM”
mas'uliyati cheklangan jamiyati

Tahririyat manzili:

100070. Toshkent shahri, Yakkasaroy tumani, Kichik Beshyog'och ko'chasi, 70/10-uy. Elektron manzil:

scienceproblems.uz@gmail.com

Bog'lanish uchun telefon:

(99) 602-09-84 (telegram).

MUNDARIJA

07.00.00 – TARIX FANLARI

<i>Mansurov Ulug'bek Umarovich</i> FARG'ONA VODIYSI SHAHARLARIDA TIBBIYOT TIZIMIDAGI O'ZGARISHLAR (1917-1990-YILLAR)	12-20
<i>Yuldashev Ulugbek Kadirjanovich</i> O'ZBEKISTONDA PROFESSIONAL TA'LIM BOSQICHIDA DUAL TA'LIM SHAKLINING JORIY QILINISHI TARIXI	21-27
<i>Bobobekova Nargiza Ismatullayeva</i> JIZZAX VILOYATI SOG'LIQNI SAQLASH TIZIMI FAOLIYATI TARIXI (XIX ASR IKKINCHI YARMI - XX ASR BOSHLARI)	28-33
<i>Esanova Nilufar</i> MUSTAQILLIK YILLARIDA O'ZBEKISTONNING YENGIL SANOAT SOHASINI RIVOJLANTIRISHDA XORIJIY MAMLAKATLAR BILAN HAMKORLIGI	34-37
<i>Tursunov Bekzot Yandashevich</i> QO'QON XONLIGI QO'SHININING QUROL-ASLAHALARIGA OID	38-45
<i>Давлетмуратов Куралбай Хожамуратович</i> АНТИЧНЫЕ И СРЕДНЕВЕКОВЫЕ ЗООМОРФНЫЕ МЕТАЛЛИЧЕСКИЕ ИЗДЕЛИЯ ХОРЕЗМА	46-52
<i>Raximov Bektosh, Tashmuradov Umidbek</i> AMIR TEMUR VA TEMURIYLAR DAVRIDA TASHQI DIPLOMATIK ALOQALARNING DAVLAT SIYOSIY TARAQQIYOTIDAGI AHAMIYATI	53-57
<i>Otaxanov Alisher Mamadaliyevich</i> TEMURIY MALIKALARNING ILM-FAN VA IJTIMOIIY TARAQQIYOTGA QO'SHGAN HISSALAR	58-64
<i>Xakimov Ravshan Raimovich</i> MIRZACHO'LNING ETNOEKOLOGIK MUAMMOLARI	65-74
<i>Ergashev Jahongir Yunus o'g'li</i> TURK XOQONLIGINING BOSHQARUVIDA IMPERIYACHILIK XUSUSIYATLARINING O'ZIGA XOS JIHATLARI	75-82

08.00.00 – IQTISODIYOT FANLARI

<i>Gabriel Ayodeji Ogunmola</i> ЦИФРОВОЙ ДИВИДЕНД: ИЗУЧЕНИЕ ПОТЕНЦИАЛА ЦИФРОВОЙ ТРАНСФОРМАЦИИ ДЛЯ УСТОЙЧИВОГО ЭКОНОМИЧЕСКОГО РАЗВИТИЯ В УЗБЕКИСТАНЕ	83-96
<i>Abdullayev Altinbek Yangibayevich</i> KORXONANING KOMPLEKS ISHLAB CHIQUARISH XARAJATLARI VA QO'SHIMCHA MAHSULOT ISHLAB CHIQUARISH HISOBINI YURITISHNING USLUBIY ASOSLARINI TAKOMILLASHTIRISH	97-113
<i>Komolov Odiljon Sayfidinovich</i> KREDIT TASHKILOTLARINI SOLIQQA TORTISH AMALIYOTINING TAHLILI	114-123

<i>Shaislamova Nargiza Kabilovna</i> MAMLUKAT IQTISODIYOTI BARQARORLIGINI TA'MINLASHDA QAYTA TIKLANUVCHI ENERGIYA MANBALARINING ROLI	124-134
<i>Qo'chqarov Baxtiyor Xoshimjanovich</i> KICHIK BIZNES SUBYEKTLARINING AYLANMA MABLAG'LARINI SHAKLLANTIRISH VA UNDAN SAMARALI FOYDALANISH USULLARI	135-147
<i>Abdimurodov Baxrom, Abdimurodov Bahodir</i> AKSIYADORLIK JAMIYATLARIDA XODIMLARGA HAQ TO'LANADIGAN HAR YILGI MEHNAT TA'TILINI RASMIYLASHTIRISHNI TAKOMILLASHTIRISH	148-152
<i>Matkarimov Inomjon, Yuldashbayev Azizullo</i> BARQAROR RIVOJLANISH VA YASHIL IQTISODIYOTGA O'TISH	153-158
<i>Исламмутидинова Дина Файзрахмановна</i> ТРАНСФОРМАЦИЯ ОРГАНИЗАЦИОННО-ЭКОНОМИЧЕСКОЙ СИСТЕМЫ КОНЕВОДСТВА В УСЛОВИЯХ СОВРЕМЕННОГО РАЗВИТИЯ ЭКОНОМИКИ РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАНИ	159-166
<i>Ravshanov Zaxiriddin Ibragimovich</i> OVQATLANISH XIZMATLARI SOHASIDA DAVLAT-XUSUSIY SHERIKLIGINI RIVOJLANTIRISH BORASIDA TAVSIYALAR	167-176
<i>Джуманиязов Уббинияз Исмайл улы</i> ПРИМЕНЕНИЕ ИСКУССТВЕННОГО ИНТЕЛЛЕКТА В СЕЛЬСКОМ ХОЗЯЙСТВЕ КИТАЯ	177-183
<i>To'lov Ulu'bek Toshmamatovich</i> YERLARNI BAHOLASH VA SOLIQQA TORTISHNING METODOLOGIK ASOSLARINI TAKOMILLASHTIRISH	184-193
09.00.00 – FALSAFA FANLARI	
<i>Xolmirzaev Xurshid Nakibillaevich,</i> IJTIMOIY-KASBIY FAOLIYAT JARAYONIDA SUN'IY INTELLEKTNING INSON SALOHİYATIGA TA'SIRI	194-200
<i>Tashanov Abduxoliq</i> QADIMGI SHARQ MANBALARIDA INSON BUZG'UNCHILIGI HAQIDAGI QARASHLAR ...	201-206
<i>Muhamedov Asror Asadovich</i> UCHINCHI RENESSANS POYDEVORINI YARATISHDA YUSUF XOS HOJIB FALSAFIY MEROSIDAN FOYDALANISH	207-213
<i>Жумаева Шахло Суюновна</i> ВОПРОС НРАВСТВЕННОГО СОВЕРШЕНСТВА В УЧЕНИИ АХМАДА ЯССАВИ	214-219
<i>Eshonqulov Laziz Norqobul o'g'li</i> HAJVIYLIKNING PSIXOLOGIK IJTIMOIY-MADANIY VA ESTETIK XUSUSIYATI	220-224
<i>G'ulomov Zuxriddin Baxromjon o'g'li</i> AXBOROTLASHGAN JAMIYATDA YOLG'ON AXABOROTLARNING MAZMUN-MOHİYATI VA KONSEPTUAL ASOSLARI	225-231
<i>Xaitov Lazizbek Azamatovich</i> HAKIM TERMIZIYNING FALSAFIY TA'LIMOTI	232-236

<i>Ortiqov Shahriddin</i> SHAXS ESTETIK ONGI VA MADANIYATNI SHAKLLANTIRISHDA TEATR SAN'ATINING O'RNI	237-241
<i>Toshboboeva Munavar</i> IJTIMOIY-MA'NAVIY MUHIT BARQARORLIGIDA XOTIN-QIZLARNING ISHTIROKI	242-248
<i>Murotov Elyor Narzillo o'g'li</i> YANGI O'ZBEKISTONNING TARAQQIYOT STRATEGIYALARINING UZVIYLIGI VA FALSAFIY TAHLILI	249-255
<i>Soipova Mavjuda Karimjanovna</i> FAZL IBN AHMAD TA'LIMOTIDA NUR VA HARAKAT MASALASI	256-260
<i>Ashurova Xurshida Sag'dullaevna</i> HOJI MUIN ZAMONDOSHI SHOKIR MUXTORINING HAYOTI VA FAOLIYATI HAQIDAGI QARASHLARI	261-264
<i>Karimov Anvarjon Lutfilloyevich</i> IBN SINO FALSAFIY MEROSIDA AXLOQI MASALASI	265-269
<i>Shakambarov Abdurashid Abdujabbarovich</i> MA'NAVIY MARGINALLASHUV DAN HIMOYALANISHDA XORIY TAJRIBASI	270-275
<i>Samadov Jonmurod</i> JALOLIDDIN RUMIY GNOSEOLOGIIYASINING ZAMONAVIY TAHLILI	276-280
<i>Barnoev Sanjar Qurbonovich</i> YUSUF HAMADONIYNING INSON VA KOINOT UYG'UNLIGIGA OID TA'LIMOTIDA ME'YOR MASALALARI	281-286
<i>Ярлакабов Джамшид Мамасултонович</i> СВОБОДА И НЕОБХОДИМОСТЬ КАК ВЕКТОРЫ РАЗВИТИЯ ГЛОБАЛЬНОГО ОБЩЕСТВА: РЕАЛИИ И ПЕРСПЕКТИВЫ	287-291
10.00.00 – FILOLOGIYA FANLARI	
<i>Isanova Feruza Tulqinovna</i> INGLIZ VA O'ZBEK TILLARIDA XALQARO HUQUQ SOHASIGA OID LEKSIK BIRLIKLARNING SINXRON TAHLILI	292-297
<i>Xayrullayeva Shahzoda Farhod qizi</i> O'ZBEK VA INGLIZ TILLARIDA SALBIY VA IJOBIY HIS TUYG'ULARNI LINGVOKULTUROLOGIK TAHLILI	298-303
<i>Tadjiyeva Mastura, Umarxonova Dilafruz</i> INGLIZ VA O'ZBEK MAQOLLARIDA "BOYLIK" VA "FAQIRLIK" KONSEPTLARINING AKSIOLINGVISTIK TAHLILI	304-308
<i>Sharipova Nilufar Shaxrillo qizi</i> ZAMONAVIY DUNYO ADABIYOTIDA XALQ KULGISI ASOSIDA KELIB CHIQQAN YANGI BADIY SHAKLLAR	309-312
<i>Ochilova Gulnoza Farxod qizi</i> NUTQ BIRLIKLARI MASALASINING UMUMIY TILSHUNOSLIKDAGI TALQINI	313-316
<i>Alqarov Nazarbek Alisher o'g'li</i> IT MOTIVINING DUNYO VA O'ZBEK ADABIYOTSHUNOSLIGIDA O'RGANILISHI	317-322

<i>Abdusalomov Firuz Abduxoliqovich</i> HARBIY DISKURSDA BUYRUQNING VOQELANISHI	323-329
<i>Ruzmatova Gulnara Kulmamatovna</i> STYLISTIC AND LINGUACULTUROLOGICAL FEATURES OF IMPLICATURES IN ENGLISH AND UZBEK ANECDOTES	330-333
<i>Safarova Farida, Toshkulova Madinabonu</i> THE STUDY OF TEXT LINGUISTIC	334-337
<i>Amonova Dilshoda Azamat qizi</i> ADABIYOTDA BADIY OBRAZ TUSHUNCHASI VA UNING XUSUSIYATLARI (DEN BRAUNNING "DA VINCHI SIRI" ROMANI MISOLIDA)	338-343
<i>Sultonova Gulchehra Xusanovna</i> INGLIZ VA O'ZBEK TILI NAMUNASI SIFATIDA AFORIZMLARNING MADANIY VA FALSAFIY JIHATLARI	344-348
<i>Makhmudova Mutabar Dustmukhammad kizi,</i> CAUSES OF STEREOTYPE OCCURRENCE	349-353
<i>Sadullaeva Matlyuba Akhrorovna,</i> NUMERIC MYSTERIES: THE ROLE OF NUMBERS AND SYMBOLISM IN "THE DA VINCI CODE"	354-359
<i>Khusenova Shosura Toshtemirovna,</i> DOCTORS' ATTITUDES TOWARD LEARNING ENGLISH: A NEEDS ANALYSIS REPORT	360-363
<i>Mamajanova G'uncha, Shakirova Saida</i> EKVIVALENTLIK VA TAFOVUT MEZONLARI ASOSIDA O'ZBEK VA INGLIZ METAFORALARINING QIYOSIY TAHLILI	364-368
<i>Saydullayeva Dilrabo Ilxom qizi</i> SODIQIY AFSHORNING "MAJMA UL-HAVAS" TAZKIRASI VA UNING O'ZBEK TAZKIRASHUNOSLIGIDAGI AHAMIYATI	369-372

12.00.00 - YURIDIK FANLAR

<i>Нурпеисов Еркеш, Ибраева Алуа, Сманова Акмарал</i> КОНСТИТУЦИОННОЕ РЕГУЛИРОВАНИЕ ТРИАДЫ В ИСТОРИЧЕСКОМ ВЫБОРЕ КАЗАХСТАНА	373-379
<i>Камалов Мансурхон Мухтарович</i> К ВОПРОСУ О КОНФЛИКТЕ ИНТЕРЕСОВ В КОРПОРАТИВНЫХ ОТНОШЕНИЯХ	380-385
<i>Komilov Avazbek Bokijonovich</i> QONUN BUZILISHI, UNING KELIB CHIQISH SABABLARI VA BUNGA IMKONIYAT YARATIB BERAYOTGAN SHART-SHAROITLARNI BARTARAF ETISH TO'G'RISIDAGI PROKUROR TAQDIMNOMASINING MAZMUNI VA UNGA QO'YILGAN TALABLAR	386-394
<i>Xolov Utkir Shomurodovich,</i> QONUNYI KUCHGA KIRGAN SUD Hujjatlarni yangi ochilgan holatlar bo'yicha qayta ko'rishning ayrim masalalari	395-399
<i>Kuldoshev Ulug'bek Otabek o'g'li</i> KASB YUZASIDAN O'Z VAZIFALARINI LOZIM DARAJADA BAJARMASLIK VA XAVF OSTIDA QOLDIRISH JINOYATLARINING SUBYEKTI VA ULARNING FARQLI JIHATLARI	400-407

<i>Ибрагимова Сабина Эркиновна</i> К ВОПРОСУ О ДАЛЬНЕЙШЕЙ ИМПЛЕМЕНТАЦИИ МЕЖДУНАРОДНЫХ СТАНДАРТОВ ПРАВОСУДИЯ НА ДОСУДЕБНОЙ СТАДИИ, В УГОЛОВНО- ПРОЦЕССУАЛЬНОЕ ЗАКОНОДАТЕЛЬСТВО РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН	408-413
<i>Avezov Dilshod Sadulayevich</i> MAHALLIY KENGASH DEPUTATINI CHAQIRIB OLISH MASALALARI VA UNING XUSUSIYATLARI	414-418
<i>Haydarov Jaloliddin Hamza o'g'li</i> VALYUTA QIMMATLIKLARINI QONUNGA XILOF RAVISHDA OLISH YOKI O'TKAZISH JINOYATINING PREDMETI TAHLILI	419-423
<i>Zairov Asadbek Sayfullo o'g'li</i> INKLYUZIV TA'LIMINI TAKOMILLASHTIRISHDA QONUNCHILIK BAZASINING ROLI	424-432
<i>Karimov Bekmurodjon Anvarjonovich</i> BMT INSON HUQUQLARI BO'YICHA SHARTNOMAVIY ORGANLARI TIZIMINI KUCHAYTIRISH	433-442
13.00.00 – PEDAGOGIKA FANLARI	
<i>Jumaniyozova Muhayyo Tojiyevna</i> ZAMONAVIY OLIY TA'LIMDA KREATIVLIKNI TASHXISLASH METODIKALARINI QO'LLASHNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI	443-449
<i>Raxmatov Otabek Urinbosarovich</i> "JISMONIY TARBIYA VA SPORT PEDAGOGIKASI" FANINING BO'LAJAK JISMONIY TARBIYA VA SPORT FAOLIYATI MUTAXASSISLARINI TAYYORLASHDAGI AHAMIYATI	450-455
<i>Xamroyev Samijon Salimovich</i> SPORT TO'GARAGI MAHG'ULOTLARIGA TALABALAR QIZIQISHLARINI SHAKLLANTIRISHDA UZLUKSIZLIKNI TA'MINLASH VOSITALARI	456-461
<i>Berdiyeva Nilufar Ibodullayevna</i> TALABALARDA INSHONING MAZMUNII- MANTIQUIY BAYON QILINISHIGA DOIR BILIM, KO'NIKMA VA MALAKALARNI SHAKLLANTIRISH	462-467
<i>Ortiqov Bekruh Baxodir o'g'li</i> ZAMONAVIY VOLEYBOLCHILARNING JISMONIY TAYYORGARLIGI VA BIOMEXANIK XUSUSIYATLARI HAMDA SAMARADORLIKKA TA'SIRI	468-472
<i>Jumayeva Xulkarxon Muxammadjonovna</i> TALABALARNI INVARIANTIV VA VARIATIV TAHDIDLARDAN HIMOYALASHNING PEDAGOGIK STRATEGIYASI	473-480
<i>Avliyaqulov Tolib Xolmurodovich,</i> TALABALAR KASBIY-AXLOQIY TAYYORGARLIGIGA QADRIYATLARGA ASOSLANGAN YONDASHUV	481-486
<i>O'tashev Xasan Nematullayevich</i> OLIIY TA'LIM MUASSASASIDA SPORT ISHLARINING USTUVOR VAZIFASI SIFATIDA SPORT MADANIYATINI SHAKLLANTIRISHNING MUHIM JIHALTLARI	487-492
<i>Axmadjanov Doniyor Baxtiyor o'g'li</i> BO'LAJAK TARIX O'QITUVCHISINING AXLOQIY YETAKCHILIGI VA KASBIY FAZILATLARI	493-500

<i>Mengliyev Bobur Normamatovich</i> O'QITUVCHILARNI PEDAGOGIK KOMPETENTLIGINI TAHLIL QILISH USULLARI	501-507
<i>Gafforov Alisher Xolmurodovich</i> PROFESSIONAL TA'LIM MUASSASALARI RAQAMLI TA'LIM RESURLARINI LOYIHALASH, TIZIMLASHTIRISH VA UNING MAZMUNI	508-518
<i>Qurbonova Bonu Quvondiq qizi</i> BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILARINI KITOBGA QIZIQTIRISH: SAMARALI USULLAR VA ZAMONAVIY YONDASHUVLAR	519-524
<i>Zubaydullayev O'ktam Raim o'g'li</i> O'QUVCHI SHAXSINI SHAKLLANTIRISHDA SAN'ATNING O'RNI	525-529
<i>Raximov Nurillo Narzullaevish</i> BO'LAJAK MUSIQA O'QITUVCHISINI KASBIY-PEDAGOGIK FAOLIYATGA TAYYORLASH: MUAMMO VA YECHIMLAR	530-538
<i>Ergashova Munisa Hoshim qizi</i> MUSTAQIL TA'LIMNI O'YINLAR ORQALI TASHKIL ETISH	539-543
<i>Nuriddinova Madina, Nuriddinov Muhriddin</i> USING WIKI-TECHNOLOGY TO IMPROVE STUDENTS' WRITING COMPETENCE	544-552
<i>Kalekeeva Sarbinaz Turkmenbaevna,</i> O'QUVCHILARNING MANTIQUIY FIKRLASHINI RIVOJLANTIRISHGA QARATILGAN ZAMONAVIY YONDASHUVLAR	553-560
<i>Nasriddinova Hulkar Komiljonovna,</i> RAQAMLI TEXNOLOGIYALARNING BOSHLANG'ICH SINFLAR MATEMATIKA TA'LIMIDA QO'LLANILISHI IMKONIYATLARI	561-565
<i>Evatov Saminjon Sobirovich</i> JAMOAVIY FAOLIYATNI TASHKEL ETISH ASOSIDA O'QUVCHILARNING KOMMUNIKATIV QOBILIYATINI RIVOJLANTIRISH	566-572
<i>Samatova Shohsanam Xolmuhammad qizi</i> BO'LAJAK O'QITUVCHILARDA KOGNITIV YONDASHUV ASOSIDA TIZIMLI FIKRLASHNI SHAKLLANTIRISH TAMOYILLARI	573-577
<i>Idrisov Mironshoh Ilyos o'g'li</i> TALABALARNI JISMONIY TARBIYA, SPORT VA TURIZM VOSITALARI BILAN SOG'LOMLASHTIRISH TIZIMINI SHAKLLANTIRISH MUAMMOLARI	578-582
<i>Nasriddinova Nilufar Shuxrat qizi</i> 1-SINF ONA TILI DARSLARIDA INNOVATSION TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISHNING INTENSIVLIGINI TA'MINLASH METODIKASI	583-587
<i>Yavkochdiyeva Dilafruz</i> TALABALARNI PEDAGOGIK KASBIY FAOLIYATGA TAYYORLASHDA "STAATE" INNOVATSION TEXNOLOGIYASIDAN FOYDALANISH	588-593

Received: 16 February 2025

Accepted: 5 March 2025

Published: 20 March 2025

Article / Original Paper

THE CONCEPT OF LITERARY CHARACTER IN LITERATURE AND ITS PECULIAR FEATURES (WITH MEANS OF DAN BROWN'S "CODE OF DA VINCHI")

Amonova Dilshoda Azamat qizi,

BSU, doctorate student

Email: dilshodamonova99@gmail.com

Abstract. The concept of literary character is a tool for deeper understanding in literature and its essence is revealed more clearly in the works of Dan Brown.

Keywords: character, literary character, positive character, negative character, tragic, satiric, humoristic, generalizing, specificity, aesthetic impression.

ADABIYOTDA BADIY OBRAZ TUSHUNCHASI VA UNING XUSUSIYATLARI (DEN BRAUNNING "DA VINCHI SIRI" ROMANI MISOLIDA)

Amonova Dilshoda Azamat qizi

BuxDU 1-kurs doktoranti

Annotatsiya. Badiiy obraz tushunchasi adabiyotda chuqurroq anglashga molik vosita bo'lib, yozuvchi Den Braun asarlarida uning mohiyati yanada yaqqol ochiladi.

Kalit so'zlar: obraz, badiiy obraz, ijobiy obraz, salbiy obraz, tragik, satirik, yumoristik, umumlashtiruvchi, xususiylik, estetik ta'sirchanlik.

DOI: <https://doi.org/10.47390/SPR1342V5I3Y2025N49>

Kirish. Obraz – badiiy adabiyot namunasida inson, hayvon, narsa, yoki boshqacha talqin etiladigan bo'lsa, asarda ifodalangan voqelikni san'atga xos uslubda xarakterlovchi kategoriyadir. Badiiy obrazga keladigan bo'lsak, badiylik san'atning ham joni ham ruhi ekan, uni yuzaga chiqaradigan asosiy vositalardan biri – badiiy obrazdir va u adabiyotshunoslikda asosiy o'rin egallaydi.

Obraz so'zining lug'aviy ma'nosiga to'xtaladigan bo'lsak, bu so'zning o'zagi "raz"(chiziq) bo'lib, undan "razit"(chizmoq, o'ymoq), undan "obrazit"(chizib, o'yib shakl bermok) paydo bo'lgan. Shu "obrazit" so'zidan "obraz" atamasi kelib chiqqan. Bu esa "umumiy olingan tasvir" degan ma'noni anglatadi.[3,62]

Badiiy obraz terminini asarda qo'llangan badiiy vositalar (o'xshatish, sifatlash, mubolag'a kabi)ga nisbatan ham ishlatish mumkin. Shuningdek muayyan davrga xos manzaralarni qabariq, ta'sirchan holda gavdalanitirishga nisbatan ham bu asarda davrning o'ziga xos obrazi gavdalanitirilgan deyish ham mumkin. Bundan anglashiladiki, badiiy obrazning ikki muhim xususiyati mavjud. Birinchidan, obrazda hodisalarning muhim xususiyatlari umumlashtirilgan bo'ladi. Ikkinchidan, unda muayyan aniqlik (yaqqol hodisa, alohida bir

odam) akslangan bo'ladi. Demak obraz ham umumlashgan, ham individuallashtirilgan xususiyatni o'zida gavdalantirgan hodisadir. Ayon bo'ladiki, badiiy obraz borliq hodisalarining shunchaki nusxasi emas. Badiiy obraz, avvalo, ijodkorning kashfiyoti, uning ijodiy mehnati mahsulidir. Ijodkor obraz yaratish uchun o'zicha izlanadi.

Aristotelning "Poetika" asarida obraz tushunchasi alohida ahamiyatga ega. U adabiyotning mohiyatini taqlid (mimesis) deb atagan va shunday deydi: "San'at – hayotning o'zini emas, balki uni ideal tarzda aks ettirishdir. Badiiy obraz bu aks ettirishning markaziy elementidir." [4,134]. Aristotel badiiy obrazni voqelikni estetik anglash vositasi deb biladi. Aristotel badiiy obrazni voqelikni estetik anglash vositasi sifatida ta'riflar ekan, aslida san'atning inson tafakkuriga ta'sirini ham belgilaydi. Chunki san'at faqat haqiqatni tasvirlash bilan cheklanmaydi, balki uni muayyan burchakdan ko'rsatib, tomoshabin yoki o'quvchini o'ylashga, his qilishga, anglashga majbur qiladi. Shu jihatdan badiiy obraz real hayot va inson tafakkuri o'rtasidagi ko'priq vazifasini o'taydi.

O'zbek mumtoz adabiyoti namoyondasi Alisher Navoiy o'z asarlarida obrazlarni yaratishda chuqur estetik anglashni namoyon etgan. Uning fikricha: "She'riyatda obrazni chizmak lozim kim, o'qug'uvchi ul chizgan surat ichinda o'zini ko'rgandek holat o'lasidir." [5,152]

Bu fikr obrazning jonli, hissiy va ta'sirchan bo'lishi kerakligini ta'kidlaydi. Alisher Navoiy she'riyatida badiiy obraz yaratish jarayoni nafaqat estetik tajribaga, balki ruhiy va intellektual idrokka ham bog'liqdir. Uning fikricha, she'riy obraz shunchaki tasvir emas, balki o'quvchi ongida jonlanadigan, xayolotini harakatga keltiradigan manzara bo'lishi lozim. Bu tamoyil Sharq mumtoz adabiyotining eng yuksak talablaridan biri bo'lib, she'riyatni tasviriy san'atga yaqinlashtiradi.

Har bir obraz, V.Belinskiy fikricha, "Voqeilikdagi ma'lum hodisalarning mag'zini chaqib beradigan, umumlashtiruvchi...har qanday voqeiy hodisadan yuksak ...har qanday tarixdan ishonchliroqdir" [7,75]

Adabiyotshunoslikda badiiy obrazlar turlicha tasnif etiladi, bu turlichalik tasnif uchun qaysi jihat asos qilib olingani bilan bog'liqdir. Jumladan, ijodkor estetik ideali bilan munosabatiga ko'ra *ijobiy* va *salbiy* obrazlar, ijodiy metodga ko'ra *realistik*, *romantik*, *syurrealistik*, yaratilish usuliga ko'ra *fantastik*, *grotesk*, xarakter xususiyati va estetik belgisiga ko'ra *tragik*, *satirik*, *yumoristik* obrazlar farqlanaveradi. [1,78]

Xalqaro miqyosda mashhur yozuvchi Den Braunning "Davinchi Siri" romani badiiy obrazning tasviri, ularning rivoji va murakkab ichki dinamikasini tahlil qilish uchun yorqin namuna hisoblanadi. Ushbu romanda insoniyat tarixining sirli qirralari, diniy va falsafiy masalalar, shuningdek, madaniy qadriyatlarning ziddiyatlari orqali yaratilgan obrazlar o'zining chuqur tahliliga loyiqdir. Asar qahramonlarining har biri – Robert Lengdon, Sofi Nevu yoki Sir Li Tiben – alohida badiiy obraz sifatida voqelikning turli qirralarini ifoda etadi va o'quvchini asar orqali falsafiy mulohazalarga chorlashda muhim vositaga aylanadi.

Tahlil va natijalar. Ushbu adabiyot namunasini tahlil qilish jarayonida badiiy obrazning o'ziga xos xususiyatlari ushbu asarda namoyon bo'lganligini ko'rish mumkin.

Badiiy obraz bir necha xususiyatlarni o'zida mujassamlashtirishi mumkin. To'xta Boboyev ("Adabiyot qoidalari" darsligi) ko'ra quyidagi xususiyatlarni o'rganish badiiy obraz vazifasi, tuzilishini o'rganishga yordam beradi. Bulardan birinchisi umumlashtiruvchi xususiyatdir.

“Da Vinchi siri” (The Da Vinci Code) asarida badiiy obrazlarning umumlashma xususiyati, ya’ni ularning o’ziga xos jihatlari orqali kengroq mavzularni ifodalashi, bir qancha sahnalarda namoyon bo’ladi.

Asarning bosh qahramoni Robert Lengdon obrazi orqali ilm-fan, tarixni anglash va qadrlash ifodalangan.

“Kodlarni va ramzlarni yechishda shunday bir jihat bor ediki, ular faqat yuzaki ma’noni anglatib qolmasdi. Asl haqiqat hamisha ular orqasida yashiringan edi.”[6,98]

Ushbu satrda Lengdonning madaniy va tarixiy sirlarni yechishga bo’lgan qiziqishi umumiy insoniy xususiyatlarni yoritadi.

Silasning obrazidagi umumlashma xususiyati: diniy fanatizm va ichki azob

Silas – o’zini diniy mas’uliyatga butunlay bag’ishlagan, o’z maqsadlari uchun hech narsadan toymaydigan obraz. Uning o’ziga zarar yetkazishi va chidamsiz e’tiqodlari insoniyat tarixidagi diniy fanatizmni umumiy nuqtai nazardan yoritadi.

“U o’zi sodir etgan har bir gunoh uchun badanini jazolashni davom ettirdi. Tiz cho’kib ibodat qilar ekan, chandiqlaridan qon sizib chiqqan holda Xudoga mukammal xizmat qilayotganiga ishondi.”

yoki *“Silas tiz cho’kib, qattiq og’riqdan titrab, ichki dunyosidagi har bir gunohini yodga oldi. Oyoqlariga o’ralgan chaqmoqli zanjir uning badanini qonatardi, lekin bu jarohatlar uni Xudoga yanada yaqinlashtirardi. ‘Men faqatgina sen uchun azob chekyapman, Robbim,’ — dedi u pichirlab.” [6,107]*

Bu parchalarda Silasning o’z e’tiqodi yo’lida o’zini qurbon qilishga tayyorligi, uning shaxsiy fojeasi orqali, diniy ekstremizmning naqadar kuchli bo’lishi mumkinligini ko’rsatadi.

Asardagi obrazlar o’ziga xos individuallik xususiyatlariga ham ega. Masalan, Silasning dinga sadoqat xususiyati boshqa obrazlardan uni farqlab turadi:

“Silas tiz cho’kib, qattiq og’riqdan titrab, ichki dunyosidagi har bir gunohini yodga oldi. Oyoqlariga o’ralgan chaqmoqli zanjir uning badanini qonatardi, lekin bu jarohatlar uni Xudoga yanada yaqinlashtirardi. ‘Men faqatgina sen uchun azob chekyapman, Robbim,’ — dedi u pichirlab.” [6,264] Quyidagi parchada Silasning ichki dunyosi uning ruhiy holati yoritilgan.

Asardagi obrazlardan yana biri Sofini mustaqil fikrlash, intellektual kuchi xarakterning o’ziga xosligini ko’rsatadi.

Robert Lengdon esa har bir narsa, voqea-hodisaga sinchkovlik bilan yondashuvi uning individualligini ifodalaydi.

Demak, obrazlarning umumlashma jihatidan tashqari xususiylik (individuallik) tarafi ham mavjud, bu esa asarda obrazning badiiyligini oshirishga, kitobxonning yanada ko’proq e’tiborini tortishga yordam beradi.

Shuningdek, obrazlarning keyingi xususiyati ularning badiiy to’qimadan iboratligidir. Obraz hayotiy umumlashmalarni individual shaxs belgilari, inson hayotining konkret manzaralari orqali ifodalanishni taqozo etar ekan, bunday murakkab ijodiy jarayonni badiiy to’qimasiz, ijodiy fantaziyasiz tasavvur qilish mumkin emas. Badiiy adabiyot hodisa va xarakterlarni “o’ylab topish”ni, to’qimani talab etadi. Adabiyotda “badiiy to’qima qancha ko’p bo’lsa, shuncha yaxshi, — defan Aleksey Tolstoy. – Lekin badiiy to’qimani shunday amalga oshirish kerakki, undan o’quvchida chinakam turmush haqiqati degan taassurot qolsin. Yozuvchi badiiy to’qimasiz yashay olmaydi. Zotan, butun adabiyot badiiy to’qimalardan iborat, chunki turmush hodisalari zamon va makon ichida sodir bo’ladi.”

Robert Lengdonning ilmiy tahlillari, ayniqsa, “Mona Liza” portreti haqida berilgan izohlar, real tarixiy ma’lumotlar va muallifning ijodiy to’qimasi uyg’unlashganini ko’rsatadi:

“Mona Liza haqidagi sir oddiy emas,— dedi Lengdon. Leonardo o’zining dualistik falsafasini portret orqali ifoda etgan. Mona Liza – bu erkak va ayolning uyg’unlashuvi. Ismning o’zi ham bu g’oyani yashiradi: “Mona”– madam, “Lisa”– Amon, qadimiy erkaklik ma’budining nomi. Lengdon jilmayib davom etdi: “Leonardo bu yerda o’z falsafasining chinakam ramzini yaratgan.” [6,154]

Bu parcha tarixiy fakt va muallifning ijodiy g’oyalarini birlashtiradi. Mona Liza haqida haqiqiy ma’lumotlar badiiy to’qima orqali boyitilgan.

Silas obrazining qattiqqo’l va dramatik tabiatini ifodalovchi tasvirlar muallifning ijodiy yondashuvini ko’rsatadi. Silas real hayotdagi biror shaxs emas, lekin muallif uni realistik diniy fanatizmning to’qimadan yasalgan namunasi sifatida yaratgan.

“Silas Xudoning irodasini bajarish uchun o’zini azobga solishdan tortinmasdi. Har bir jazo harakati uni ko’zlangan maqsadga yaqinlashtirganday edi. Bu azoblar orqali u o’zini poklanayotgandek his qildi. U o’z shijoatidan faxrlanar edi, chunki Xudo unga g’ayrioddiy kuch bag’ishlaganini bilardi.” [6,197]

Silasning obrazida real hayotda mavjud bo’lgan diniy fanatizm bilan badiiy to’qima birlashadi.

Sofi va uning bobosi o’rtasidagi murakkab aloqalar asar davomida real hayotga xos ko’ringan, lekin muallifning to’qimasi bilan boyitilgan voqealar orqali ochiladi. Bobosining yashirin hayoti va Sofiga qoldirgan jumboqli xabarlar asarning badiiyligini oshiradi.

“Sofi, sen men uchun yagona vorisimsan. Men bu sirni faqat senga qoldira olaman,” — deb yozilgan edi uning bobosidan qolgan so’nggi maktubda. Sofi maktubni qo’liga olib, nimani anglatishini bilishga harakat qildi. Bu oddiy bir xabar emas, yashirin kod edi, bobosining hayoti davomida yashirincha qilgan ishlarining mantiqiy davomi.” [6,291]

Bu parcha muallifning real tarixiy va ramziy voqealarga badiiy to’qimalarni qanday qo’shganini aks ettiradi.

“Da Vinchi siri” asaridagi obrazlar badiiy to’qimadan yasalgan bo’lsa-da, ular real tarix, san’at va din bilan bog’liq bo’lgan muhim mavzularni yoritadi. Muallif badiiy ijodni haqiqatga yaqin ko’rinishda tasvirlash orqali kitobxonni asarga yanada chuqurroq jalb qiladi.

To’rtinchi xususiyat – badiiy obrazning estetik ta’sirchanligi. San’atning vazifasi, birinchidan, voqelikni estetik jihatdan o’zlashtirish va ikkinchidan kitobxonda estetik hissiyot (emotsiya) uyg’otishdan iborat. San’atkor go’zallik qonuniyati asosida ijod qiladi. Shunga ko’ra, san’atning vazifasi go’zallikni targ’ib qilish uning predmeti inson esa ba’zan go’zallik va ba’zan xunuklik ifodachisi bo’lishi mumkin. Badiiy obraz kitobxonda albatta qandaydir estetik hissiyot (emotsiya) uyg’otishi kerak. Chunonchi, hayotdagi xunuklikni aks ettirgan badiiy obraz kitobxonda nafrat uyg’otsa, go’zallikni ifodalagan badiiy obraz o’quvchida estetik zavq-shavq uyg’otadi[3,80]. Yozuvchi badiiy obraz orqali estetik idealni ifodalaydi: ideal ijobiy obrazda bevosita va salbiy obrazda bilvosita ifodalanadi. Yozuvchi har bir obrazni ehtiros bilan tasvirlaydi, unga aktiv munosabatda bo’ladi ijodkor eng eng oddiy oddiy narsa narsa ustida ishlayotgan bo’lsa ham, boringki chipta kovush to’qiyotgan bo’lsa ham bu ishga qalbini qo’shadi. Hunarmand shu ishga qalbini qo’sha olsa, juda ulug’ san’atkor bo’la oladi va san’atkor faqat bo’yoqlarni chaplab bersa-yu, ishga qalbini qo’shmasa, hunarmand bo’lib qolishi mumkin. Shunga ko’ra, u yoki bu asarni o’qiganimizda biz ham badiiy obrazning faoliyatiga befarq qaray

olmaymiz: ulardan ilhomlanamiz, zavqlanamiz yoki yo faxrlanamiz, o'rnak olamiz yoki nafratlanamiz, g'azablanamiz. Jirkanamiz va hayotdagi shunday kishilarga qarshi kurashga ahd qilamiz.

Den Braun asarlaridagi obrazlar estetik ta'sirchanlikka boy. Tahlil ostiga olingan adabiyot namunasiga nazar tashlaydigan bo'lsak, asar boshida Luvr muzeyining kechki manzarasi tasvirlanadi. Bu tasvir san'atning ulug'vorligi va sirlarning go'zalligini his qilishga imkon beradi.

"Luvr zali tinch edi, faqatgina kristalli piramidadan tushayotgan oy nuri atrofni yoritib turardi. Haykal va suratlar sirli sukunat ichida hayotga to'lgandek edi. Har bir qadam san'atning o'ziga xos ovozi eshittirardi. Bu joy insoniyat tarixining unutilgan sirlarini yashirayotgandek tuyulardi." [6,287]

Ushbu parchadagi muzey tasviri hayrat, san'atga bo'lgan hurmat shuningdek, sirli muhitni his qilish imkonini beradi.

Silas obrazi orqali esa uning dinga vafodorligi e'tiqodining kuchliligi bilan kitobxonga ayrim o'rinlarda qo'rquv, shu bilan birga hayrat hisini beradi.

Robert Lengdon orqali muallif kitobxonga sinchkovlik, intiluvchanlik hislarini baxsh etadi. Chunki u har qadamda o'ziga turli savollar bilan tugunlarni yechishga bel bog'laydi.

Adabiyotlar tahlili. Adabiyotda badiiy obraz tushunchasi va uning xususiyatlarini tushuntirish uchun turli adabiyotshunoslar va nazariy manbalarga murojaat qilish lozim. Quyida asosiy adabiyotlarni sharhlab o'tamiz:

V. G. Belinskiy o'z asarlarida badiiy obrazni ijodkorning subyektiv fikrlarini ifoda etuvchi vosita sifatida talqin qilgan. Uning ta'kidlashicha, badiiy obraz hayotni badiiy aks ettirishning yuksak shaklidir [7,86]. Belinskiy bu fikr bilan shuni anglatadiki, badiiy asar to'g'ridan-to'g'ri hayotning nusxasi emas, balki ijodkorning hayotga bo'lgan shaxsiy munosabati va idroki bilan shakllanadi. Ya'ni, yozuvchi yoki shoir o'z dunyoqarashi, his-tuyg'ulari va estetik qarashlarini obraz orqali ifoda etadi. Ya'ni, yozuvchi voqelikni emas, balki uni o'z nigohi orqali qayta yaratadi. Shuning uchun bir xil mavzudagi asarlar har xil yozuvchilar tomonidan turlicha aks ettiriladi.

A. Potebnya esa badiiy obrazni metaforalar va badiiy vositalar orqali shakllanadigan ramziy ma'no deb ta'riflaydi. Uningcha, badiiy obraz faqat o'quvchining tasavvurida to'liq amalga oshadi [8,105]. Potebnya nazariyasiga ko'ra, adabiy asarning asosiy vazifasi – yangi obrazlar yaratish orqali o'quvchini fikrlashga undashdir. Badiiy obraz, uning nazarida, muallif tomonidan tayyor holatda emas, balki o'quvchi ongida shakllanadigan tushunchadir. Demak, san'at va adabiyotda asarning mohiyati matnning o'zida emas, balki u o'quvchida uyg'otadigan tasavvurlarda mujassamdir

M. M. Baxtin badiiy obrazni qahramonning ichki dunyosi va jamiyat bilan bog'liq munosabatlarining o'zaro bog'liqligi sifatida o'rganadi. Uning fikricha, obraz dialogik xususiyatga ega bo'lib, o'z mohiyatini o'quvchi bilan muloqotda namoyon etadi. [9,79]

Xulosa. Badiiy obraz tushunchasi adabiyotning asosiy mezonlaridan biri bo'lib, u o'zida insonning ichki dunyosini, jamiyatdagi o'rnini va u bilan o'zaro aloqasini aks ettiradi. Obraz – bu adabiy asar muallifi tomonidan yaratilgan hayotiy qahramonlar, voqealar va hodisalarning badiiy ko'rinishidir. Badiiy obrazni yaratishda yozuvchining mahorati, asarning g'oyaviy yo'nalishi, tarixiy va ijtimoiy shart-sharoitlar muhim ahamiyat kasb etadi.

Den Braunning “Da Vinchi siri” asari bu jihatdan badiiy obraz yaratishning yorqin namunalaridan biri hisoblanadi. Mazkur romanda obrazlar orqali muallif nafaqat o‘zining chuqur falsafiy qarashlarini ifoda etgan, balki insoniyat tarixidagi muhim sirlarni badiiy shaklda ochib bergan. Asardagi Robert Langdon obrazi intellektual salohiyat va ilmiy qiziqishning ramzi sifatida namoyon bo‘ladi. Sofi Nevu esa insoniy jasorat, iroda va sirlarni anglash istagini o‘zida mujassamlashtiradi. Ularning izlanishlari jarayonida asar qahramonlari zamonaviy fan, tarix va din o‘rtasidagi murakkab bog‘liqlikni yoritib, o‘quvchini falsafiy va ma’naviy savollar ustida mulohaza yuritishga undaydi.

Romandagi badiiy obrazlarning o‘ziga xosligi ularning ko‘p qirrali va murakkab bo‘lishidadir. Har bir qahramon o‘z shaxsiyati, tajribalari va qarashlari bilan o‘quvchini o‘ziga jalb qiladi. Den Braun obrazlarning xatti-harakatlari, nutqi va hissiyotlari orqali ularning ichki dunyosini batafsil ochib beradi, bu esa o‘quvchining ularga yaqinroq bo‘lishiga imkon yaratadi. Asardagi badiiy obrazlar shunchaki qahramonlar emas, balki zamon, madaniyat va insoniyat oldidagi muhim savollarning timsolidir.

“Da Vinchi siri”da yaratilgan obrazlar orqali muallif badiiy asar faqat badiiy tasvir va hikoya emas, balki inson tafakkurini kengaytiruvchi, uni falsafiy va intellektual chuqurlikka yetaklovchi vosita ekanligini namoyon qilgan. Bu asar o‘quvchini o‘z dunyoqarashini qayta ko‘rib chiqishga, tarixga va madaniy merosga yangicha nazar bilan qarashga undaydi.

Umuman olganda, Den Braunning “Da Vinchi siri” asaridagi badiiy obrazlar adabiyotda obraz tushunchasining yuksak namunasidir. Ular insonning ichki dunyosini chuqur tahlil qilish, jamiyatdagi murakkabliklarni ko‘rsatish va tarixiy haqiqatlarni badiiy shaklda ifoda etish orqali o‘ziga xos badiiy-estetik qiymat kasb etadi. Mazkur asar nafaqat detektiv janrining rivojida, balki badiiy obraz yaratish san’atida ham muhim o‘rin egallaydi. Bu esa, o‘z navbatida, Den Braun ijodini jahon adabiyoti durdonalari qatoriga qo‘shadi.

Adabiyotlar/Литература/References:

1. Baxtin M. M. – “Estetika slovesnogo tvorchestva”
2. Belinskiy V. G. – “Adabiyot haqida fikrlar”
3. Brown, D. The Da Vinci Code. New York: Doubleday, 2003.
4. Dilmurod Quronov, “Adabiyot nazariyasi asoslari”, 2018, T.
5. D.Quronov va b.q. “Adabiyotshunoslik lug‘ati”, T:”Akademnashr”, 2010
6. Foster K. – “The Art of the Thriller” (2013)
7. H.Umurov, “Adabiyot nazariyasi”, Toshkent 2002.
8. I.Sulton, “Adabiyot nazariyasi”, Toshkent, 1980.
9. Potebnya A. A. – “Mif va badiiy obraz”
10. Simons S. – “Symbolism in Modern Literature” (2007)
11. To‘xta Boboyev, “Adabiyotshunoslik asoslari”, Toshkent, 1979.

SCIENCEPROBLEMS.UZ

IJTIMOYIY-GUMANITAR FANLARNING DOLZARB MUAMMOLARI

№ 3 (5) – 2025

АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО- ГУМАНИТАРНЫХ НАУК

ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

“Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari” elektron jurnali 2020-yil 6-avgust kuni 1368-sonli guvohnoma bilan davlat ro'yxatiga olingan.

Muassis: “SCIENCEPROBLEMS TEAM”
mas'uliyati cheklangan jamiyati

Tahririyat manzili:

100070. Toshkent shahri, Yakkasaroy tumani, Kichik Beshyog'och ko'chasi, 70/10-uy. Elektron manzil:

scienceproblems.uz@gmail.com

Bog'lanish uchun telefon:

(99) 602-09-84 (telegram).